


ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000

JOURNAL OF MAMUN SCIENCE



Volume 4, Issue 2 **2026**

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

4 JILD, 2 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 4, HOMEP 2

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 4, ISSUE 2



«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «MA'MUN SCIENCE» | JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

№2 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0000-2026-2>

Бош муҳаррир: | Главный редактор:
Chief Editor:

Matyakubov Umidjon Raximovich
(i.f.d., prof.)

Бош муҳаррир ўринбосари: | Заместитель
главного редактора: | Deputy Chief Editor:

Xudoynazarov Egambergan Madrahimovich
(PhD., dots.)

TAHRIRIY MASLAHAT KENGASHI | EDITORIAL BOARD | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

FILOLOGIYA FANLARI

O'rozboyev Abdulla Durdibayevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Axmedov Oybek Saporboyevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Galiyeva Margarita Rafaelovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Nasrullayeva Nafisa Zafarovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Samarqand davlat chet tillari instituti

Cho'ponov Otanazar Otojonovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)

Urganch davlat universiteti

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

TARIX FANLARI

Anatoliy Sagdullayevich Sagdullayev

Tarix fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi Fanlar

akademiyasining haqiqiy a'zosi

Ashirov Adhamjon Azimbayevich

Tarix fanlari doktori, professor,

O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasi Tarix instituti.

Shaydurov Vladimir Nikolayevich

Tarix fanlari doktori, dotsent

Leningrad davlat universiteti Rossiya

Abdullayev Utkir Ismoilovich

Tarix fanlari doktori (DSc),

dotsent Urganch davlat universiteti

Matkarimova Sadoqat Maqsudovna

Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Timur Pulatovich

Tarix fanlari nomzodi, dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdalov Umidbek Matniyazovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

PSIXOLOGIYA FANLARI

Shoumarov G'ayrat Baxromovich

Psixologiya fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi

Kryukova Tatyana Leonidovna

Psixologiya fanlari doktori, professor

Kostroma davlat universiteti Belorusiya

Karpinskiy Konstantin Viktorovich

Psixologiya fanlari doktori, professor

Grodno davlat universiteti Belorusiya

Urazbayeva Dilbar Abdullayevna

Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Jumaniyazova Nasiba Ramatillayevna

Psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

IQTISODIYOT FANLARI

Ruzmetov Baxtiyar

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ma'mun Universiteti NTM

Sherov Alisher Bakberganovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Voronsova Yuliya Vladimirovna

Iqtisodiyot fanlari nomzodi

Moskva davlat boshqaruvi universiteti

Jabborov Umarbek Rustambekovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Cho'ponov San'at Otanazarovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Niyazmetov Islambek Masharipovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

PEDAGOGIKA VA FALSAFA FANLARI

Sardor Sharifzoda O'razboy Tabib o'g'li

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Adilov Zafar Yunusovich

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Boltayev Abdurahim Amanovich

Falsafa fanlari doktori, dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Zoirov Erkin Xalilovich

Falsafa fanlari doktori, dotsent

Buxoro davlat texnika universiteti

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

TIBBIYOT FANLARI

Yuldashev Baxrom Sobirjanevich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Ravshanbek Babajonovich

Tibbiyot fanlari doktori, professor

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Esamuratov Aybek Ibragimovich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Samandarova Barno Sultonovna

Biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Tajiyeva Zebo Baxodirovna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

ILMIY JURNAL TEXNIK KOTIBI

Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li

Ma'mun Universiteti NTM

Журнал включен в перечень ВАК национальных научных изданий, рекомендуемых для публикации
основных научных результатов диссертаций по медицинским наукам постановлением
№ 01-08/3068/17 от 27 сентября 2024 г.

Page Maker | Верстка | Саифаловчи: X. Mirzaxmedov

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

FILOLOGIYA

1. **Djumanova Dilbar Raximovna, Bakiyeva Gulandom Xisomovna, Yuvasheva Shoiraxamamadovna**
MAQOLLARNING GENDERLIK: RUS VA INGLIZ TILLARIDA OILAVIY MUNOSABATLAR SEMANTIKASI.....6
2. **Xajiyeva Difuza Adambayevna**
HAMID OLIMJON SHE'RIYATIDA TABIAT TASVIRI: BAHOR, TOG' VA TUN POETIK SEMANTIKASI.....12
3. **Эргашева Дилфуза Камиловна**
ЦЕННОСТНЫЕ ТРАНСФОРМАЦИИ В СОВРЕМЕННОЙ РУССКОЙ ЖЕНСКОЙ ПРОЗЕ.....17
4. **Grigoryeva Mariya Vitalyevna**
RUS VA O'ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGIDA XRONOTOP (FAZOVIY KONFIGURATSIYA) NING BADIY VA FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI.....21

TARIX

1. **Abdullayeva Laylo**
O'RTA SINFNING SHAKLLANISHI VA UNING TARIXIY-NAZARIY ASOSLARI.....25
2. **SHeripov Umarbek Atajanovich**
MARKAZIY OSIYODA SUV XAVFSIZLIGI MUAMMOSI VA SIBIR DARYOLARINI BURISH LOYIHASI: TARIXIY TAJRIBA VA ZAMONAVIY GEOSIYOSIY TAHLIL.....30
3. **Kamolova Habiba Muhammadiyevna**
AMIR TEMUR VA SHAHRISABZ: TARIXIY MEROS VA ZAMONAVIY TARAQQIYOT....34
4. **Allaberganov Ollabergan Arslanbekovich**
1945–1956-YILLARDA XORAZM VILOYATIDA PENSIYA TA'MINOTI (YUTUQ, KAMCHILIK VA TAFOVUTLAR).....38
5. **Matyakubova Shaxodat Xamidjanovna**
V–XI ASRLARDA JANUBIY OROLBO'YI HUDUDIDA AHOLI TURAR-JOYLARINING MADANIY-XO'JALIK RIVOJI VA IQTISODIY-ETNOMADANIY MUNOSABATLAR (XORAZM ARXEOLGIK TADQIQOTLARI ASOSIDA).....43
6. **Jumaniyazova Intizor To'likinova**
MAMLUKATIMIZDA DINIY TA'LIM VA UNING HUQUQIY ASOSLARI.....48
7. **Alimova G'unchaxon Baxodirovna**
ARAB MUHAMMADXON VA UNING AVLODLARI DAVRIDA XIVA XONLIGINING MUSTAHKAMLANISHI.....52
8. **Г.А. Дадамирзаева**
ЎЗБЕКИСТОНДА ХУНАРМАНДЧИЛИК КООПЕРАЦИЯСИНING ТАШКИЛИЙ-ҚУРИЛИШ ЖАРАЁНИНИНГ АМАЛГА ОШИРИЛИШИ.....56
9. **Mamasaidov Lutfillo Payzullo o'g'li**
TA'LIM TIZIMIGA KOMMUNISTIK G'OYALAR TATBIQI VA UNING IJTIMOIIY OQIBATLARI.....63
10. **Matkarimova Intizor Atabayevna**
AHOLINI RO'YXATGA OLIHNING JAHON TAJRIBASI.....69

FALSAFA

1. **Nurmatov Jaxangir Yeshbayevich, Turobov Bekpulat Nusratullayevich**
E.E.BERTELS ASARLARIDA NAVOIY MA'NAVIIY MEROSI TAHLILI.....76
2. **Bozorov Mustafu Jabborovich**
MIGRATSIYA JARAYONINING GENEZISI: IJTIMOIIY-FALSAFIY TAHLIL.....82

**Jumaniyazova Intizor To'likovna–
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch Davlat
Universiteti Ijtimoiy- iqtisodiy fanlar fakulteti Tarix
yo'nalishi 3- kurs talabasi**

MAMLAKATIMIZDA DINIY TA'LIM VA UNING HUQUQIY ASOSLARI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.19007648>

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda diniy ta'lim olish sohasi yo'nalishlari va uning sifatini oshirishga qaratilgan islohotlar, ilmiy-tadqiqot tamoyillari, islom dini tarixi, falsafasi, ularning jamiyat hayoti va rivojidagi o'rni bilan bog'liq masalalarni hamda zamonaviy fanlarni chuqur o'zlashtirgan, davlat va jamoat tashkilotlari, diniy muassasalar oldidagi nazariy va amaliy vazifalarni haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: O'zbekiston Musulmonlari idorasi, diniy ta'lim, madrasa, ta'lim muassasalari.

НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ РЕЛИГИОЗНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В НЕЗАВИСИМОЙ РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН И РЕФОРМЫ, НАПРАВЛЕННЫЕ НА ПОВЫШЕНИЕ ЕГО КАЧЕСТВА.

Аннотация: В данной статье рассматриваются направления религиозного образования в Узбекистане и реформы, направленные на повышение его качества, принципы научных исследований, вопросы, связанные с историей и философией ислама, их роль в жизни и развитии общества, а также теоретические и практические задачи, стоящие перед государственными и общественными организациями и религиозными учреждениями, глубоко освоившими современные науки.

Ключевые слова: Управление мусульман Узбекистана, религиозное образование, медресе, учебные заведения.

DIRECTIONS IN THE FIELD OF RELIGIOUS EDUCATION IN THE INDEPENDENT REPUBLIC OF UZBEKISTAN AND REFORMS AIMED AT IMPROVING ITS QUALITY

Annotation: This article discusses the directions of religious education in Uzbekistan and reforms aimed at improving its quality, the principles of scientific research, issues related to the history and philosophy of Islam, their role in the life and development of society, as well as the theoretical and practical tasks facing state and public organizations and religious institutions that have deeply mastered modern sciences.

Key words: Office of Muslims of Uzbekistan, religious education, madrasah, educational institutions.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).

Jamiyatimiz mustaqillikka erishganidan so'ng mamlakatda milliy, ma'naviy-ruhiy erkinliklarga keng yo'l ochib berildi, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, g'oyaviy, madaniy hayotning muhim tarmog'i hisoblanadigan, yuksak ma'naviyatni yuzaga kelishiga bevosita ta'sir qiladigan, dunyoqarashi keng qamrovli, intellektual salohiyatli, ma'naviy jihatdan barkamol avlodni tarbiyalash, voyaga yetkazish, ta'lim-tarbiya tizimini tubdan rivojlantirishga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratildi.

Shuningdek yoshlar har qanday jamiyatning asosiy bo'g'ini hisoblanadi. Ularning dinga bo'lgan munosabati jamiyatning ma'naviy, madaniy va axloqiy darajasini belgilaydi.

O'zbekistonda diniy ta'lim sohasi uzoq tarixiy ildizlarga ega bo'lib, mustaqillikdan keyin davlat tomonidan tizimli tarzda tartibga solindi. O'tgan yillarda diniy ta'lim sohasi, yo'nalishlari, diniy ta'lim muassasalari faoliyati va ularda ta'lim sifatini oshirish borasida bir qator islohotlar amalga oshirildi.

1929 yilga kelib O'zbekistonda diniy ta'lim tizimi batamom to'xtatildi. Oradan qariyb 15 yil o'tib, Ikkinchi jahon urushi davrida sovet tuzumining diniy siyosatida keskin o'zgarish kiritildi, bundan tashqari Ikkinchi jahon urushining eng og'ir paytida sobiq ittifoq aholisining Islom diniga bo'lgan munosabati ijobiy tomonga o'zgara boshladi, **1943-yil**, ikkinchi jahon urushi davom etayotgan bir paytda O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari diniy boshqarmasi ta'sis etish harakati faollashdi. Mazkur ta'lim muassasalarining ochilishi SSSR XKS qoshidagi diniy ishlar bo'yicha kengash raisi o'rinbosari K.Ya.Pugo faoliyati bilan bog'liq, u o'lkada diniy bilim yurtlarining ochilishi va faoliyati bilan bog'liq ma'lumiotlarni so'rab O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari diniy boshqarmasiga (ya'ni 1943 yilda vujudga kelgan O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari diniy boshqarmasi tashkiloti) murojaat qiladi. Mazkur Diniy boshqarma faoliyati beshta sovet respublikasini qamrab olgan edi [1].

O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlar diniy idorasi tashkil etilganidan keyin, asta-sekinlik bilan diniy idora tashabbusi va xalqning xohish-istaklariga binoan muassasa tarkibiga kiruvchi tashkilotlar ham ochila boshladi. Yangi diniy markazni ta'minlash maqsadida respublikaning yirik shahar va viloyatlarida bittadan masjid ochilishiga ruxsat etildi. Bir necha yillar din-u diyonatdan mahrum etilgan xalq xaroba holga kelib qolgan masjidlarni ta'mirlashga kirishdilar. Sababi masjidlarning ochilishiga ruxsat etilishining o'ziyoq ular uchun tarixiy voqea edi. Yuqorida qayd etilganilek K.Ya.Pugo murojaatining mazmunidan shunisi ayon ediki diniy boshqarma rahbariyati kelgusidagi ochiladigan diniy ta'lim muassasalari uqitish rejasini ishlab chiqishga kirishadi. 1945-yilning mart oyida O'zbekiston SSR XKS qarori asosida O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari diniy boshqarmasi raisi muftiy Eshon Boboxon ibn Abdulmajidxon boshchiligida tashkiliy qo'mita tuziladi. Ushbu tashkiliy qo'mitaning tavsiyasidan so'ng oradan ikki oy o'tib, yuqorida qayd etilgan respublikaning Toshkent va Buxoro shaharlarida 2 ta diniy bilim yurti ochiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI (АНАЛИЗ ЛИТЕРАТУРЫ/ LITERATURE ANALYSIS).

Tadqiqotchi Z.E.Xalilova islom dinida ta'lim jarayoniga to'xtalib, ikkinchi jahon urushidan so'ng keyingi davr ta'limini mustaqillikka bo'lgan davr oralig'ini tadqiqot doirasiga olgan [2]. Tadqiqotda sovet davlatining dinga, diniy ta'limga nisbatan munosabati, bunda diniy ta'lim muassasalarining faoliyati, aynan Mir Arab, Baroqxon madrasalari, madarasa faoliyatida talabalar turmush tarzi bilan bog'liq ijtimoiy hayot, O'zbekiston tarixidagi ilk diniy oliy ta'lim muassasasi – Imom Buxoriy nomidagi Toshkent Islom instituti va uning diniy ta'lim tizimidagi o'rni ko'rib chiqilgan. Ahamiyatli tomoni davr hayotida mavjud va faoliyat olib borgan rasmiy hamda norasmiy ta'lim muassasalari haqida batafsil to'xtalib o'tadi.

Tadqiqotchi M.R.Yusupov tomonidan O'zbekistonda XX asrning 40-80 yillarida musulmon diniy tashkilotlari va ulamolar faoliyati o'rganilgan bo'lib, mustaqillik sharoitida islom dini tarixi va sovet davrida unga bo'lgan munosabat masalasi, manbalar, asosan arxiv hujjatlari asosida tadqiq qilingan. M.R.Yusupov dissertatsiyasida sovet davlatining Ramazon va Qurbon hayitlariga nisbatan salbiy munosabati, madaniy meros obyektlarini, muqaddas qadamjolarini yo'q qilishga urinish

holatlari, sovet davlatida masjidlar faoliyati, norasmiy masjidlarga qarshi kurash, diniy tashkilotlarga kadrlar tayyorlash kabi masalalar ko'rib chiqilgan [3]. 1917-1950-yillar oralig'ida O'zbekistonda musulmon diniy muassasa va tashkilotlar faoliyati tarixi yuzasidan A.M.Salmonovning tadqiqotlari diqqatga sazovor. A.M.Salmonov tadqiqotida Turkistonda sovet hokimiyatining o'rnatilishi va mustahkamalanishi jarayonida islom diniga, dindorlar hamda diniy muassasalarga munosabat masalalari, Turkistonda olib borilgan diniy siyosatning o'ziga xos jihatlari, xudosisizlik uchun kurash, uning sabablari, salbiy oqibatlarini ilmiy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqotda sovet hokimiyatining dahriylik kurashi keskin tus olgan yillarda musulmon diniy muassasa va tashkilotlarining ahvoli, 1925-1928-yillarda O'zbekistonda yuritilgan diniy siyosat va uning mohiyati, 1940-yillargacha qatag'onga uchragan diniy ulamolar, ularning tarixiy taqdiri haqida ma'lumotlar aks etdi.

Qolaversa, Ikkinchi jahon urushi yillarida din va diniy muassasalarga munosabatda dahriylik siyosatidan chekinish sabablari, urushdan keyingi davrda olib borilgan diniy siyosatdagi muammolar tahlili amalga oshirildi [4].

Diniy ta'lim (islom dini asosida) masalasi bir qator xorij olimlari tomonidan tadqiqot ostiga olingan. Jumladan, E.Tasar [5], M.Olkott [6], J.Trover [7], A.Xolid [8]larning izlanishlari diqqatga sazovor. Bu borada xorijiy tadqiqotlardan A.Benigsenning izlanishlari diqqatga sazovor, tadqiqotda sovet davlatining diniy siyosati, Sovet Ittifoqi hududidagi masjidlarining yoppasiga yopilishi, dinga qarshi targ'ibot-tashviqot ishlari davlat miqyosida olib borilganligi tanqid ostiga olinadi [9].

MUHOKAMA VA NATIJALAR (ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ / DISCUSSION AND RESULTS).

O'zbekiston Respublikasida diniy ta'limni xususiy tartibda olib borish qonuniy cheklangan hisoblanib, 1998-yilda qabul qilingan "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonunning 9-moddasiga muvofiq, Diniy tashkilotlarning markaziy boshqaruv organlari ruhoniylar va o'zlariga zarur bo'lgan diniy xodimlar tayyorlash uchun diniy o'quv yurtlari tuzishga haqli. Diniy o'quv yurtlari O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida ro'yxatdan o'tkazilib, tegishli litsenziya olganidan keyin faoliyat ko'rsatish huquqiga ega bo'ladi; diniy o'quv yurtlarida diniy fanlarni o'qitayotgan shaxslar diniy ta'lim olgan bo'lishlari va o'z faoliyatlarini tegishli markaziy boshqaruv organining ruxsati bilan amalga oshirishlari lozim kabi huquqlar mustahkamlanib, xususiy tartibda ta'lim berish man etildi[10]. Diniy ta'lim berish masalasida qonunni buzish holatlari uchrasa, ya'ni maxsus diniy ma'lumoti bo'lmay turib va diniy tashkilot boshqaruvi markaziy organining ruxsatisiz diniy ta'limdan saboq berish holati sodir etilsa, O'zbekiston Respublikasining ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 241-moddasiga ko'ra, eng kam ish haqining besh baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima solinadi yoki 15 sutkagacha ma'muriy qamoqqa olinadi[11]. Mazkur ma'muriy jazo qo'llanilgandan so'ng yana shunday holat, ya'ni maxsus diniy ma'lumoti bo'lmay turib va diniy tashkilot boshqaruvi markaziy organining ruxsatisiz diniy ta'limotdan saboq berish, xuddi shuningdek, xususiy tartibda diniy ta'limotdan saboq berish, shunday harakatlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 229-2-moddasiga muvofiq - bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi[12].

Xulosa (Conclusion). Yoshlar – har bir jamiyatning kelajagi, ular o'z vaqtida hamda kelajakda davlat va jamiyat rivojiga hissa qo'shadigan muhim omillardir. Diniy e'tiqodlar esa insonlarning axloqiy qadriyatlarini, hayotiy maqsadlari va ijtimoiy munosabatlariga ta'sir etuvchi muhim jihatlardan hisoblanadi. Yosh avlodning diniy e'tiqodlari uning shaxsiyati va dunyoqarashini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

-
- [1]. Yu.B. Tursunova. O'tmishga nazar 3 jild, 10 son. T.,2020.

- [2]. Xalilova Z.E. 1945-1991 yillarda O'zbekistonda islom dini ta'limining holati va tarixshunosligi.: Tarix fan. nomzodi diss. ... – T., 2019.
- [3]. Yusupov R.M. O'zbekistonda XX asrning 40-80 yillarida musulmon diniy tashkilotlari va ulamolar faoliyati (MDA ma'lumotlari asosida).: Tarix fan. nomzodi diss. ... – T., 2008.
- [4]. Salmonov A.M. O'zbekistonda musulmon diniy muassasa va tashkilotlar faoliyati tarixi (1917-1950 yillar).: Tarix fan. nomzodi diss. ... – Farg'ona, 2008.
- [5]. Tasar E. The Official Madrasas of Soviet Uzbekistan // Journal of the Economic and Social History of the Orient. 2016. – Vol.59. – P. 265-302.
- [6]. Olcott M.B. Women and Society in Central Asia // Soviet Central Asia. The Failed Transformation. Edited by William Fierman. – Boulder: Westview Press, 1991. – P. 235-254.; Olcott M.B. Soviet Islam and world Revolution // World Politics. – 1982. Vol. 34. № 4
- [7]. Thrower J. Notes on Muslim theological education in the USSR in the 1980s // Political and economic trends in Central Asia. – Edited by Shirin Akiner. – London, New York: British Academic Press, 1994.
- [8]. Khalid Adeeb. Islam after Communism. Religion and Politics in Central Asia – University of California Press. – London. 2007.
- [9]. Benniggen A. Les musulmans oubliés L'Islam en U.R.S.S. aujourd'hui. FRANCOLS MASPERO 1 place Paul – Painlevé PARIS V 1981
- [10] O'zbekiston Respublikasining 01.05.1998- yildagi “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida”gi 618-I-son Qonuni // <https://lex.uz/docs/-65108>
- [11] O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi // <https://lex.uz/docs/-97664>
- [12] O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi // <https://lex.uz/docs/-111453>

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE» JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

Maqolani tayorlashda qo'yiladigan talablar:

1. Maqola o'zbek, ingliz va rus tillarida minimal 6 sahifadan iborat bo'lib, Microsoft Word dasturida Times New Roman shriftida 12 kegl, 1 satr oralig'ida, sahifalar barcha tomondan 2 sm qoldirilgan holda bo'lishi shart.
2. Satr boshi - 1,25 sm bo'lib, satrlarni eniga to'g'irlash, so'zlarni boshqa qatorga ko'chirish avtomatik tarzda bo'lishi lozim.
3. Birinchi qator o'ng tomondan muallifning familiyasi, ismi va otasining ismi, ikkinchi qatorda muallifning ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni, e-mail va telefon raqami, uchinchi qatorda sahifaning o'rtasida bosh va qalin harflar bilan maqolaning nomi yoziladi. Ushbu ma'lumotlar o'zbek, ingliz va rus tillarda berilishi lozim.
4. Keyingi qatordan o'zbek, ingliz va rus tillarida 60 so'zdan iborat annotatsiya beriladi.
5. Keyingi qatordan 7-10 ta o'zbek, ingliz va rus tillarida kalit so'zlar beriladi.
6. Keyingi qatordan asosiy matn boshlanadi va maqola 4 qismdan iborat bo'ladi: Mavzuning dolzarbligi. Metodlar va o'rganilganlik darajasi. Tadqiqot natijalari. Xulosa.
7. Maqolalar ilmiy ahamiyatga ega bo'lib, ulardagi fakt va fikrlar asoslangan hamda mustaqil ma'no kasb etishi lozim, plagiat holati taqiqlanadi. Muallif foydalanilgan adabiyotlarni aniq ko'rsatishi, olingan iqtiboslarning aniq manbalarini keltirishi lozim.
8. Web of science hamda Scopus tizimidagi jurnallardan iqtiboslar olish maqsadga muvofiqdir.
9. Iqtiboslar matn ichida [1, 25] beriladi. Adabiyotlarning to'liq ro'yxati asosiy matndan so'ng alifbo tartibida ko'rsatilishi lozim.

Требования к оформлению научной статьи:

1. Статьи должны содержать 6 страниц, в формате Times New Roman на Microsoft Word, 12 кегль, 1 см, со всех сторон 2 см.
2. Начала абзаца - 1,25 см, формировать строки по ширине, перенос слов в другой ряд должен быть в автоматическом порядке.
3. В первой строке от правой стороны Ф.И.О. автора, во второй строке место работы, должность, ученая степень и ученое звание, e-mail и номер телефона, в третьей строке по центру страницы прописными буквами жирным шрифтом название статьи. Эта информация должна быть предоставлена на узбекском, английском и русском языках.
4. В следующей строке аннотация из 60 слов на трех языках: узбекский, английский и русский.
5. Со следующей строки ключевые слова 7-10.
6. Далее начинается основной текст. новой текст начинается со следующей строки, и статья состоит из 4 частей: актуальность темы, методы и уровень исследования, результаты исследования, заключение.
7. Статьи должны иметь научное значение, факты и идеи должны быть обоснованными и избежать плагиатства. Автор должен точно указать использованную литературу и ссылку на источники, при помощи которых он выразил свое мнение.
8. Сноски или ссылки должен быть взяты из Web of science, а также системы журналов Scopus.
9. Цитирование приводится в тексте [1, 25] Полный список литературы должен быть указан после основного текста, а алфавитном порядке.

Requirements of the articles submitted:

1. Articles should be at least 6 pages, in Times New Roman, 12 pt., 1 inter.
2. The line head should be 1,25 cm, line spacing, and the words should be automatically moved.
3. The author's full name should be on the first line from the right; the author's place of work, position, academic degree, and academic rank, email address, and phone number should be on the second line; the article title should be centered in bold, capital letters, on the third line. This information should be provided in Uzbek, English, and Russian.
4. An annotation of 60 words in the next line in three languages.
5. Key words from the next row in three languages 7-10.
6. The next line begins with the main text. The main text begins on the next line, and the article consists of four parts: the relevance of the topic, the methods and level of research, the results, and the conclusion.
7. Articles must be of scientific importance and facts and opinions in the article should be well-grounded and have an independent meaning, and they must be free of plagiarism. The author must clearly demonstrate the literature used in his or her opinion, and provide the exact sources of the extracts.
8. Quotes should be from "Web of science" and "Scopus" journals.
9. A complete list of publications should be followed in alphabetical order after the main text. Seals and references should be in the main text [1, 25].